


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 174,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 285,2 mln. AQSh dollariga yoki 19,5 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-  
oktabr, mln.  
AQSh dollari)



*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

SAMARQAND  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO'LGAN  
DAVLATLAR  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
% da)

TSA da eksport hajmi 257,7 mln. AQSh dollariga (18,1 % ga kamaydi) va import hajmi 916,3 mln. AQSh dollariga (19,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -658,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	242,6	28,7	214,0	20,7
Rossiya Federatsiyasi	179,7	47,7	132,0	15,3
Qozog'iston	115,4	36,7	78,7	9,8
Turkiya	112,8	24,2	88,6	9,6
Yaponiya	53,1	0,1	52,9	4,5
Germaniya	38,6	1,3	37,3	3,3
Sloveniya	27,8	0,0	27,8	2,4
Tojikiston	27,1	25,7	1,4	2,3
Latviya	26,1	1,0	25,1	2,2
Ukraina	25,9	4,7	21,2	2,2

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 80 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (20,7 %), Rossiya Federatsiyasida (15,3 %), Qozog'istonda (9,8 %), Turkiyada (9,6 %), Yaponiyada (4,5 %), Germaniyada (3,3 %) va Sloveniyada (2,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (27,1 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (18,4 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (11,9 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (10,6 mln. AQSh dollari), Singapur (6,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 25 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>195,4</b>	<b>283,9</b>	<b>242,6</b>
Eksport	15,5	26,1	27,8
Import	180,0	257,8	214,0
Saldo	-164,5	-231,7	-185,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>199,3</b>	<b>266,3</b>	<b>179,7</b>
Eksport	57,8	78,7	47,7
Import	141,5	187,6	132,0
Saldo	-83,7	-108,9	-84,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>120,0</b>	<b>159,8</b>	<b>115,4</b>
Eksport	33,8	36,2	36,7
Import	86,2	123,6	78,7
Saldo	-52,4	-87,5	-41,9
<b>Turkiya</b>	<b>124,1</b>	<b>155,1</b>	<b>112,8</b>
Eksport	18,4	32,1	24,2
Import	105,7	122,9	88,6
Saldo	-87,2	-90,8	-64,4
<b>Yaponiya</b>	<b>60,3</b>	<b>58,4</b>	<b>53,1</b>
Eksport	0,2	2,5	0,1
Import	60,2	56,0	52,9
Saldo	-60,0	-53,5	-52,8
<b>Germaniya</b>	<b>91,5</b>	<b>79,6</b>	<b>38,6</b>
Eksport	1,6	1,9	1,3
Import	89,9	77,7	37,3
Saldo	-88,3	-75,7	-36,0
<b>Sloveniya</b>	<b>19,8</b>	<b>11,9</b>	<b>27,8</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	19,8	11,9	27,8
Saldo	-19,8	-11,9	-27,8

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Tojikiston</b>	<b>9,1</b>	<b>16,5</b>	<b>27,1</b>
Eksport	8,3	14,5	25,7
Import	0,8	2,0	1,4
Saldo	7,5	12,6	24,3
<b>Latviya</b>	<b>32,7</b>	<b>36,9</b>	<b>26,1</b>
Eksport	2,7	2,1	1,0
Import	0,7	34,8	25,1
Saldo	-27,4	-32,7	-24,1
<b>Ukraina</b>	<b>21,5</b>	<b>23,8</b>	<b>26,0</b>
Eksport	4,1	7,8	4,7
Import	17,3	16,0	21,3
Saldo	-13,2	-8,2	-16,5
<b>Vengriya</b>	<b>9,9</b>	<b>11,1</b>	<b>22,2</b>
Eksport	0,1	0,2	0,1
Import	9,9	10,9	22,1
Saldo	-9,8	-10,8	-22,0
<b>Litva</b>	<b>15,0</b>	<b>16,5</b>	<b>21,9</b>
Eksport	0,2	1,8	1,9
Import	14,8	14,7	20,0
Saldo	-14,5	-12,9	-18,1
<b>Hindiston</b>	<b>23,0</b>	<b>19,9</b>	<b>21,5</b>
Eksport	1,3	0,2	0,4
Import	21,7	19,7	21,2
Saldo	-20,3	-19,6	-20,8
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>14,5</b>	<b>31,6</b>	<b>19,1</b>
Eksport	0,9	0,9	0,4
Import	13,6	30,7	18,7
Saldo	-12,7	-29,8	-18,2

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-oktabr oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 3,4 % ga oshgan.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi ham 2020- yil yanvar- oktabr oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (18,6 % ga) va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAXAR VA  
TUMANLARNING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)


Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>1 174,0</b>	<b>257,7</b>	<b>916,3</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	537,3	76,8	460,5	45,8
Kattaqo'rg'on sh.	14,0	5,9	8,2	1,2
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	14,0	7,5	6,5	1,2
Jomboy	111,4	22,8	88,7	9,5
Ishtixon	9,8	5,2	4,6	0,8
Kattaqo'rg'on	31,5	11,4	20,1	2,7
Narpay	14,7	5,9	8,8	1,3
Nurobod	30,6	1,5	29,1	2,6
Oqdaryo	34,9	15,5	19,4	3,0
Payariq	13,1	7,7	5,4	1,1
Pastdarg'om	34,7	9,4	25,3	3,0
Paxtachi	19,9	2,4	17,5	1,7
Samarqand	96,0	25,5	70,5	8,2
Toyloq	72,6	11,2	61,4	6,2
Urgut	121,3	37,6	83,7	10,3
Qo'shrabot	3,1	1,0	2,1	0,3

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (537,3 mln. AQSH dollari), hamda Urgut (121,3 mln. AQSH dollari), Jomboy (111,4 mln. AQSH dollari), Samarqand (96,0 mln. AQSH dollari) va Toyloq (72,6 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 517 tani tashkil etib, ular tomonidan 257,7 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,4 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va trik hayvonlar (45,8 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,7 %), turli xil tayyor buyumlar (9,9), mashinalar va transport asbob-uskunolari (8,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO'YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)





XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>257,7</b>	<b>152,6</b>	<b>105,1</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	117,9	68,5	49,4	45,8	44,9	47,0
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,0	0,1	0,4	0,6	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15,6	6,1	9,5	6,1	4,0	9,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	6,2	2,7	3,5	2,4	1,7	3,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,5	2,9	0,6	1,3	1,9	0,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	56,0	26,2	29,8	21,7	17,2	28,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	22,6	19,1	3,5	8,8	12,5	3,3
Turli xil tayyor buyumlar	25,6	21,9	3,7	9,9	14,3	3,5
Xizmatlar	9,2	4,1	5,1	3,6	2,7	4,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>81,9</b>	<b>90,0</b>	<b>72,5</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	72,9	82,8	62,5
Ichimliklar va tamaki	66,7	65,2	87,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	60,0	69,4	55,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,7	2,8	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	101,8 m.	-	57,9 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,2 m.	3,0 m.	90,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	130,5	102,7	171,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	101,0	118,7	55,6
Turli xil tayyor buyumlar	107,2	102,4	148,3
Xizmatlar	33,2	41,5	28,6

2020- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar, mashinalar va transport asbob-uskunalari, Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarida, o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
% da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	44,9	51,4	45,8
Ichimliklar va tamaki	0,9	0,5	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	8,3	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	2,2	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	2,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	0,5	1,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	17,3	13,6	21,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	7,8	7,1	8,8
Turli xil tayyor buyumlar	8,4	7,6	9,9
Xizmatlar	13,1	8,8	3,6

**XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	93,7	63,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	13,4	2,2 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,6	132,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	88,5
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	2,2	13,0 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	1,0	65,6
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	2,3 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	11,7	60,1
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,2	57,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1,0	43,8
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6,2	101,8 m.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,3	12,6 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,3	182,5 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	2,2 m.
O'g'itlar	0,2	33,4

**XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	45,3	144,3
Metallidan tayyorlangan buyumlar	4,7	111,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3,9	143,7
Rangli metallar	1,0	26,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	20,7	105,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	0,7	47,8
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,6	91,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,4	2,5 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,2	73,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	17,4	88,8
Poyabzal	6,0	165,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,6	16,6 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,4	128,2
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	3,5	34,8
Qurilish xizmatlari	3,2	79,2 m.
Moliyaviy xizmatlari	1,6	68,7

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yil yanvar-oktabrdagi 54,3 % dan 2020- yil yanvar-oktabrida 59,2 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 40,8 % ni tashkil etdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)**



2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 18,5 %), Qozog'iston (14,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,1 %), Tojikiston (10,0 %), Turkiya (9,4 %), Qirg'iz Respublikasi (6,4 %) va Afg'oniston (4,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 74,2 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 64 ta davlatdan 62 ta davlatga o'zgargan.



VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
% da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-oktabr)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	78,7	47,7	136,3	60,6	1	1
Qozog'iston	36,2	36,7	107,1	101,5	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	26,1	28,7	168,7	109,9	4	3
Tojikiston	14,5	25,7	175,5	176,7	6	4
Turkiya	32,1	24,2	174,4	75,2	3	5
Qirg'iz Respublikasi	10,4	16,6	128,5	159,9	8	6
Afg'oniston	12,3	11,7	72,9	95,5	7	7
Ozarbayjon	9,8	10,1	146,8	103,3	9	8
Belarus Respublikasi	6,6	6,4	132,5	97,1	12	9
Singapur	2,0	5,6	41,8	2,8 m.	21	10
Ukraina	7,8	4,7	188,9	60,8	11	11
Turkmaniston	4,8	4,0	3,3 m.	83,5	14	12
Iroq	7,9	3,9	2,4 m.	49,2	10	13
BAA	5,4	3,6	100,9	66,6	13	14
Misir	0,0	3,2	-	-	65	15
Gruziya	2,3	3,1	109,6	133,7	18	16
Eron	16,2	2,2	2,2 m.	13,7	5	17
AQSH	2,1	2,1	136,1	99,0	19	18
Litva	1,8	1,9	7,6 m.	105,8	23	19
Pokiston	0,9	1,6	161,8	176,7	25	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston		Xitoy Xalq Respublikasi		Tojikiston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>78,7</b>	<b>47,7</b>	<b>36,2</b>	<b>36,7</b>	<b>26,1</b>	<b>27,8</b>	<b>14,5</b>	<b>25,7</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,4	22,0	14,6	12,3	18,7	16,7	9,0	17,7
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,4	0,2	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,8	2,4	2,4	2,0	5,4	5,9	0,1	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,4	1,0	0,0	0,0	0,5	1,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	4,1	4,8	4,9	4,7	1,9	6,0	2,3	2,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,3	0,2	12,0	13,8	0,0	0,0	1,5	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	17,6	13,9	1,6	2,5	0,0	0,0	1,0	1,5
Xizmatlar	9,6	4,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0

**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollarida)**



**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 88,5 mln. AQSh dollar qiymatli 114,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 41,4 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 31,8 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 30,2 mln. AQSh dollariga teng 63,0 ming tonna sabzavot, shuningdek 26,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi 22,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (19,7 %), Xitoy xalq Respublikasi (18,7 %), Qozog'iston (11,5 %) va Turkiya (10,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-  
oktabr)

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	25,9	21,8	16,8	18,9	17,4	19,7
Xitoy Xalq Respublikasi	18,3	18,5	14,2	20,6	16,5	18,7
Qozog'iston	34,0	14,5	11,2	21,7	10,2	11,5
Turkiya	34,9	21,0	16,1	6,7	8,9	10,0
Belarus Respublikasi	6,5	5,9	4,5	5,7	5,9	6,7
Ukraina	12,3	6,5	5,0	4,9	3,9	4,4
Ozərbayjon	3,0	3,5	2,7	2,4	3,1	3,5
Iroq	9,9	6,1	4,7	11,5	3,0	3,4
Gruziya	6,4	2,2	1,7	3,4	2,9	3,3
Turkmaniston	13,7	3,8	2,9	7,3	2,6	3,0
BAA	3,0	3,9	3,0	1,3	1,7	1,9
AQSH	0,6	1,6	1,2	0,6	1,6	1,8
Pokiston	0,3	0,8	0,6	0,6	1,6	1,8
Germaniya	0,5	1,8	1,4	0,3	1,1	1,3
Eron	7,8	5,9	4,5	1,5	1,1	1,2
Litva	1,9	1,5	1,1	0,9	1,0	1,2
Boshqa davlatlar	13,5	10,7	8,2	6,5	5,8	6,6

\*-qiymat ifodasidan

	Hudud nomi	2019-yil yanvar- oktabr	2020-yil yanvar- oktabr	Jamiga nisbatan ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
<b>SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDA AMALGA OSHIRILGAN EKSPORT HAJMI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>314,6</b>	<b>257,7</b>	<b>100</b>	<b>81,9</b>
	<i>shaharlar</i>				
	Samarqand	91,1	76,8	29,8	84,3
	Kattaqo'rg'on	5,6	5,9	2,3	105,1
	<i>tumanlar</i>				
	Bulung'ur	27,0	7,5	2,9	27,6
	Jomboy	20,7	22,8	8,8	109,9
	Ishtixon	10,5	5,2	2,0	49,3
	Kattaqo'rg'on	15,4	11,4	4,4	74,2
	Narpay	4,7	5,9	2,3	125,6
	Nurobod	0,8	1,5	0,6	185,8
	Oqdaryo	7,4	15,5	6,0	2,1 m.
	Payariq	7,8	7,7	3,0	99,0
	Pastdarg'om	17,9	9,4	3,6	52,3
	Paxtachi	3,0	2,4	0,9	80,5
	Samarqand	26,5	25,5	9,9	96,0
	Toyloq	14,6	11,2	4,3	76,6
	Urgut	39,1	37,6	14,6	96,3
	Qo'shrabot	1,3	1,0	0,4	78,4

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 68,7 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 26,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 19,3 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida gilamlar (30,1 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (23,8 %) va paxtadan yigirilgan ip (23,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 95 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 27 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Gilamlar	23,6	23,8	20,7
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	17,2	19,6	16,3
Paxtadan yigirilgan ip	3,0	4,6	16,2
Ipak va ipak mahsulotlari	5,0	7,9	8,1
Paxtadan gazlamalar	0,2	0,0	3,5
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,8	1,7	3,8

Mamlakatimizning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (17,3 mln. AQSh dollari – 25,2 %), Turkiya (11,4 mln. AQSh dollari – 16,6 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (10,3 mln. AQSh dollari – 15,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	19,2	21,6	17,3
Turkiya	2,8	4,0	11,4
Xitoy Xalq Respublikasi	2,8	5,9	10,3
Qirg'iz Respublikasi	6,5	7,1	8,7
Ozarbajon	3,4	4,9	5,2
Misr	0,0	0,0	3,2
Qozog'iston	4,3	3,3	3,1
Afg'oniston	4,4	3,6	3,0
Eron	2,4	2,6	1,1
Polsha	0,4	1,4	1,1
BAA	0,6	0,8	0,6
Izroil	0,3	0,3	0,5
Vetnam	0,0	0,0	0,5
Tojikiston	1,1	0,9	0,5
Ukraina	0,2	0,4	0,4
Italiya	0,0	0,0	0,3
Singapur	0,0	0,0	0,3
Turkmaniston	0,1	0,2	0,3
AQSH	0,4	0,0	0,2
Belarus Respublikasi	0,1	0,0	0,2

DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO'QIMACHI-LIK  
MAHSULOT-LARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)

## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi 916,3 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 80,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (33,8 %), kimyoviy vositalar (27,7 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
IMPORT  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 227,3 mln. AQSh dollariga kamaydi va 914,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>916,3</b>	<b>256,8</b>	<b>659,5</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	79,5	50,8	28,7	8,7	19,8	4,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	38,6	25,1	13,5	4,2	9,8	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	16,6	16,0	0,6	1,8	6,2	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	13,5	12,2	1,3	1,5	4,8	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	254,2	57,1	197,1	27,7	22,2	29,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	171,0	74,2	96,8	18,7	28,9	14,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	309,9	17,7	292,2	33,8	6,9	44,3
Turli xil tayyor buyumlar	30,8	3,5	27,4	3,4	1,4	4,1
Xizmatlar	2,1	0,1	1,9	0,2	0,1	0,3

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (28,9 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (22,2 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,8 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (44,3 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (29,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.

MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-oktabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>80,1</b>	<b>73,4</b>	<b>83,0</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	97,0	114,9	76,1
Ichimliklar va tamaki	3,1 m.	-	2,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	53,4	43,9	89,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	173,6	178,3	100,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	71,3	81,8	32,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	143,1	138,3	144,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	67,2	64,4	69,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	63,4	27,7	68,8
Turli xil tayyor buyumlar	81,1	85,4	80,5
Xizmatlar	67,0	2,5 m.	63,8

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 13,6 % dan 27,7 % gacha o'sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunalari 46,9 % dan 33,8 % ga, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi esa 7,0 % dan 4,2 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami</b>	100,0	100,0	100,0
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,9	7,2	8,7
Ichimliklar va tamaki	1,3	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,0	6,3	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,8	1,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,3	1,7	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	13,6	15,5	27,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	18,3	22,2	18,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	46,9	42,7	33,8
Turli xil tayyor buyumlar	1,9	3,3	3,4
Xizmatlar	0,3	0,3	0,2

**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr  
2019- yil  
yanvar-  
oktabriga  
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	29,1	112,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	28,3	119,6
Trik hayvonlar	6,6	89,1
Sabzavotlar va mevalar	4,1	82,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,5	28,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	14,4	91,9
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	9,2	35,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	5,7	59,6
Tabiiy kauchuk	5,4	162,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,0	13,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	15,5	171,6


**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr  
2019- yil yanvar-  
oktabriga  
nisbatan)**

Ko'mir, koks va briketlar	0,9	167,3
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>Mln. AQSh dollari</b>	<b>o'zgarish sura'tlari, % da</b>
O'simlik moylari va yog'lari	12,5	114,1
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	1,0	12,6
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	189,2	181,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	32,4	90,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	12,9	105,7
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	5,8	90,5
Organik kimyo moddalari	4,6	70,2
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	80,4	60,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	35,8	95,7
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	22,4	62,6
Metalldan tayyorlangan buyumlar	11,1	83,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	7,0	58,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	121,2	56,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	97,0	58,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	65,8	94,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	11,5	73,1
Metallarni qayta ishlash mashinalari	8,8	47,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	16,0	64,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	7,2	148,0
Har xil tayyor buyumlar	4,5	99,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,4	86,7
Poyabzal	1,2	87,7
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	2,0	136,2

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga har xil oziq - ovqat mahsulotlari va preparatlar (49,0 % ga), sabzavotlar va mevalar (17,4 % ga) hamda tirik xayvonlar (10,9 % ga) importining kamayishiga ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi ko`payishiga esa, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (81,7 % ga) hamda boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (5,7 % ga) importining ko`payganligi bevosita ta`sir etgan.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi % da)




Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 23,4 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (14,4 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

	Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
		2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-oktabr)	Xitoy Xalq Respublikasi	257,8	214,0	143,3	83,0	1	1
	Rossiya Federatsiyasi	187,6	132,0	132,6	70,4	2	2
	Turkiya	122,9	88,6	116,4	72,1	4	3
	Qozog'iston	123,6	78,7	143,4	63,6	3	4
	Yaponiya	56,0	52,9	93,1	94,5	6	5
	Germaniya	77,7	37,3	86,4	48,1	5	6
	Sloveniya	11,9	27,8	59,9	2,3 m.	15	7
	Latviya	34,8	25,1	115,8	72,0	7	8
	Vengriya	10,9	22,1	110,8	2,0 m.	18	9
	Ukraina	16,0	21,3	92,1	133,1	11	10
	Hindiston	19,7	21,2	91,1	107,3	10	11
	Litva	14,7	20,0	99,4	136,1	14	12
	Koreya Respublikasi	30,7	18,7	2,2 m.	60,8	8	13
	Gruziya	4,2	13,9	130,4	3,3 m.	28	14
	Eron	20,5	12,5	2,3 m.	61,0	9	15
	Polsha	14,8	12,2	118,7	82,2	13	16
	Niderlandiya	15,4	11,1	62,9	71,7	12	17
	Turkmaniston	9,5	10,6	2,5 m.	110,9	21	18
	Belarus Respublikasi	7,9	9,4	154,1	118,8	22	19
	Tayland	1,2	9,1	46,2	7,6 m.	41	20

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 74 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.


VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
% da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Yaponiya, Germaniya va Sloveniya) jami importning 68,9 % ini tashkil qiladi, bu 631,3 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDA AMALGA OSHIRILGAN IMPORT HAJMI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)	Hudud nomi	2019-yil yanvar-oktabr	2020-yil yanvar-oktabr	Jamiga nisbatan ulushi, % da	o'sish sur'ati, % da
	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 144,6</b>	<b>916,3</b>	<b>100</b>	<b>80,1</b>
	<i>shaharlar</i>				
	Samarqand	432,0	460,5	50,3	106,6
	Kattaqo'rg'on	6,2	8,2	0,9	132,0
	<i>tumanlar</i>				
	Bulung'ur	17,3	6,5	0,7	37,4
	Jomboy	160,6	88,7	9,7	55,2
	Ishtixon	17,2	4,6	0,5	26,8
	Kattaqo'rg'on	75,0	20,1	2,2	26,8
	Narpay	23,7	8,8	1,0	37,2
	Nurobod	30,9	29,1	3,2	94,4
	Oqdaryo	29,8	19,4	2,1	65,0
	Payariq	9,9	5,4	0,6	54,4
	Pastdarg'om	44,8	25,3	2,8	56,5
	Paxtachi	9,3	17,5	1,9	188,0
	Samarqand	104,8	70,5	7,7	67,3
	Toyloq	80,9	61,4	6,7	75,9
	Urgut	96,4	83,7	9,1	86,8
	Qo'shrabot	0,7	2,1	0,2	3,1 m.



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

Qurilish materiallari	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	36,3	28,2	21,4
Shisha va shisha buyumlar	2,5	2,5	2,6
Sement	1,9	3,5	0,4
Asbest	1,6	14,0	0,9

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:66-230-45-23

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)